NAMANGAN VILOYATI CHUST TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 25-oktabr | 461-6-89-Q/24 | Chust tuman hokimligi

Chust tumanida yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-sonli farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori va tuman IIB yo‘l harakati xavsizligi bo‘linmasining 2024-yil 9-oktabrdagi 24/6119-sonli xatini ko‘rib,

QAROR QILAMAN:

1. Chust tuman Ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasining tuman hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarda yo‘lovchilar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta‘minlash, yo‘l transport hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatishga ruxsat berish to‘g‘risidagi 2024-yil 9-oktabrdagi 24/6119-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman markazi “Dehqon bozori” hududi atrofida transport vositalarini tartibsiz qo‘yilib tirbandlik vujudga keayotganligi sababli, harakat xavfsizligini ta’minlash, transport vositalarini tirbandligini oldini olish hamda yo‘l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida:

Chust shahar markazida 4K462A “G‘ova qishlog‘iga” avtomobil yo‘lining 0-1 km o‘ng tomoniga 4 dona 3.27 (to‘xtash va to‘xtab turish) va 7.21 yo‘l belgisidan 3 dona o‘rnatish hamda 1.4 yo‘l chizig‘ini chizish;

Chust shahar markazida 4K462A “G‘ova qishlog‘iga” avtomobil yo‘lining 0-1 km chap tomoniga 4 dona 3.27 (to‘xtash va to‘xtab turish) va 7.21 yo‘l belgisidan 3 dona o‘rnatish hamda 1.4 yo‘l chizig‘ini chizish;

Chust shahar markazida 4K462B “Kamarsada bog‘iga” avtomobil yo‘lining 2 km o‘ng tomoniga 3.27 (to‘xtash va to‘xtab turish) yo‘l belgisi 2 dona va 7.21 yo‘l belgisidan o‘rnatish hamda 1.4 yo‘l chizig‘ini chizish;

Chust tuman markazidan 4K462A “G‘ova qishlog‘iga” va 4K462B “Kamarsada bog‘iga” kesishmasi chorrahasiga transport vositalarini qayrilib olish taqiqlanadi 3.19 yo‘l belgisidan 3 dona o‘rnatish;

4R121 “Kosonson sh – Rovot q - Chust sh - Chust tyb - Pop – Navbaxor q” avtomobil yo‘lining 40 - 41 km chap tomoniga 3.27 (to‘xtash va to‘xtab turish) yo‘l belgisi 1 dona va 7.21 yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

3. Tuman yo‘llardan foydalanish korxonasi (B.Yettiboyev) ushbu yo‘l belgilarini o‘rnatish choralarini ko‘rsin.

4. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari va yo‘l chiziqlariga amal qilishlari shuningdek, berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shartligi belgilansin.

5. Tuman IIB YHXB ga mazkur yo‘l belgilari o‘rnatilgan avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash va doimiy ravishda nazorat qilib borish vazifasi yuklatilsin.

6. Tuman hokimligining axborot xizmati (B.Mallayev) va “Chust haqiqati” gazetasi tahririyati (Z.Mehmonova) ushbu qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida hamda boshqa ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari B.Djafarov zimmasiga yuklatilsin.

8. Qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **B.Salimjonov**